Аннотация: В статье подчеркивается важность кредитования лизинговой деятельности коммерческими банками. Кратко освещены различные методы, используемые для анализа эффективности кредитования арендодателей и арендаторов. Основное внимание уделено значению андеррайтинговой деятельности в принятии кредитных решений, ее особенностям. В статье приведены научно-практические предложения по внедрению андеррайтинговой услуги каждым коммерческим банком, показатели, которые могут быть использованы андеррайтерами при оценке финансового состояния контрагента.

Ключевые слова: лизинг, кредитование лизинга, андеррайтинг, скоринг, финансовые показатели, рейтинговая модель.

KIRISH

Milliy lizing bozorini tahlil qilish natijasida qayd etish kerakki, lizing bozorida nafaqat lizing kompaniyalari, balki tijorat banklari ham muhim ahamiyatga ega.

Moliya bozorida yuqori darajadagi raqobat, kredit shartnomalarining samaradorligini oshirish va joriy moliyaviy holat kredit tashkilotlarining xarajatlarini kamaytirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tijorat banklarida kreditlash bosqichlarini standartlashtirish qo'yilgan muammolarni hal qilishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Shunday ekan, tijorat banklari lizing beruvchilar faoliyatini kreditlar orqali moliyalashtirishda asosiy e'tiborni kredit resurslarining oxirgi iste'molchisi sifatida lizing oluvchining faoliyatiga qaratadi. Lizing oluvchining moliyaviy intizomga rioya qilishi nafaqat kredit sifatining muhim kategoriyasi, balki ko'rsatilayotgan xizmatning sifatini ham yuqori darajada namoyon etuvchi omili bo'lib hisoblanadi.

Amaliyotda tijorat banklari tomonidan lizing kompaniyalari uchun kredit berish bilan bog'liq bo'lgan hamda shartnomaviy limitlar qo'llashi mumkin. Xususan, shartnoma tuzilishiga va lizing oluvchining moliyaviy holatiga nisbatan qo'shimcha talablar belgilash, qo'shimcha ta'minot talab qilish: garov ta'minoti, kafillik, tadbirkorlik risklarini sug'urtalash va h.k. ushbu jarayonlarni standartlashtirish, shartnomani ko'rib chiqish muddatini qisqartirish va ish haqi xarajatlarini kamaytirish maqsadida tijorat banklari tomonidan lizing kompaniyalari faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha qaror qabul qilishga anderrayting jarayonini joriy etish taklif etiladi. Shu bilan birga, tahlilning chuqurligi va shartnoma ishtirokchilarini baholash o'lchovi shartnoma tuzilishidan kelib chiqib aniqlanadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda tijorat banklari faoliyatida uchraydigan risklarni pasaytirish orqali ular faoliyatining samaradorligini oshirishga hukumat tomonidan alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari potensial risklarni baholash sifatini oshirish va qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtirish maqsadida davlat ishtirokidagi banklarda kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun yuqori malakali anderrayterlar guruhlarini tashkil qilish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish va modulli ("bir xil") kredit mahsulotlarini joriy etish hamda ularning bank kredit portfelidagi ulushini oshirish orqali tez va kam xarajatli chakana bank xizmatlari turlarini kengaytirish hamda banklarning skoring tizimlarini yanada takomillashtirish masalalari ham hal etilishi lozim bo'lgan vazifa ekanligini qayd etib o'tdilar ^[1].

Anderrayting tushunchasi ilk marta yozma ravishda 1622 yilda "qandaydir hujjatni imzolash" uchun qo'llanilgan. Dastlab sug'urta shartnomalari London qahvaxonalarida tuzilgan. Bunda savdogarlar (o'sha vaqtda ular sug'urtalovchi deb atalmagan) kema va yuk egalari bilan uchrashishgan ^[2]. Xuddi shunday, V. A. Makarovaning fikricha, "anderrayting" atamasi dengiz sug'urtasi shakllanishi davrida paydo bo'lib, bunda savdogar uchinchi shaxs sifatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni qoplash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olganligini imzo orqali tasdiqlagan ^[3].

N. I. Morozko, P. D. Burovlar kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining to'lovga layoqatligini baholashda anderraytingning ahamiyatini yoritib, uni rivojlantirishning innovatsion yo'llariga to'xtalib o'tishgan. Ularning fikricha, tijorat banklarida anderrayting faoliyati risklarni tahlil qilish jarayoni sifatida muammoli kreditlarning yuzaga kelishini kamaytirishga xizmat qiladi ^[4].

M. S. Kudrenkoning fikricha, anderrayting deganda qarz oluvchi (yuridik va jismoniy shaxs)ning kreditga layoqatligini baholash tartibi tushuniladi. Boshqacha aytganda, anderrayting – bu tijorat banki tomonidan belgilangan tartib asosida potensial qarz oluvchining kreditga layoqatligini ko'zda tutadigan kreditni qoplash ehtimolligini baholashdir ^[5].

Turli mamlakatlar va turli banklarda potensial kredit oluvchi faoliyatidagi risklarni baholashning turli usullari mavjud va turli baholash tizimidan ham foydalanishadi. Xususan, AQSh bank sohasidagi anderrayting amaliyoti olti "S" asosida yo'lga qo'yilgan ^[6]:

1. Character – xarakter;
2. Capacity – qobiliyat;
3. Cash – pul mablag'lari;
4. Collateral – ta'minot;
5. Conditions – shartlar;
6. Control – nazorat.

AQShda risklarni baholashda axborot yig'ishni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik ham yaratilgan.

Buyuk Britaniyada risklarni "PARTS" amaliyoti mavjud ^[6]:

1. Purpose – maqsad;
2. Amount – o'lcham;
3. Repayment – qoplash;
4. Term – muddat;
5. Security – xavfsizlik.

Buyuk Britaniyada risklarni baholash jarayonida kreditorlar tomonidan kredit byurolari reytingidan foydalanmasdan, o'zlarining mezonlari va hisob-kitob ko'rsatkichlaridan foydalanishlari AQSh amaliyotidan farqlanuvchi asosiy holat hisoblanadi.

Mamlakatimizda anderrayting xizmatiga banklarning kapital va qimmatli qog'ozlar bozorlaridagi bank xizmatlari sohasidagi ilg'or tajribalardan biri sifatida yondashilib, tijorat banklarining kreditlash amaliyotida keng foydalanishi bo'yicha fikrlar keltirilgan ^[7].

I. I. Alimov boshchiligida bir guruh olimlar anderrayting faoliyatiga anderrayter (anderrayterlar) va emitent o'rtasida shartnomada belgilangan shartlarda chiqarishni tashkillashtirish yoki emitentning qimmatli qog'ozlarini kafolatli joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat sifatida yondashib, asosiy e'tiborni anderrayterlarning qimmatli qog'ozlarni chiqarishdagi ahamiyatiga qaratgan ^[8].

Ko'rinib turibdiki, tijorat banklari faoliyatida anderrayting faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish, milliy anderrayting tizimini yaratishda xorijiy tajribadan foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kredit jarayonida qo'llaniladigan anderrayting bank faoliyatida amalda qo'llaniladigan metodika asosida kredit shartnomasi (bizning misolda lizing beruvchini kreditlash) bo'yicha risklarni kompleks tarzda mustaqil tahlil qilish va ekspertizadan o'tkazishni ko'zda tutadi. O'tkazilgan ekspertiza natijasida anderrayter belgilangan shartlar asosida aniq shartnomani amalga oshirish imkoniyatlari bo'yicha qaror qabul qiladi.



Kredit muassasalarida potensial qarz oluvchining to'lovga layoqatligini aniqlashda turli xil koeffitsiyentlardan foydalanish mumkin. Quyida AQSh va Yevropa davlatlarida ishlab chiqilib, aksariyat mamlakatlar amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan koeffitsiyentlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Anderraytingda qo'llaniladigan koeffitsiyentlarning asosiy turlari ^[9]

№	Koeffitsiyent	Koeffitsiyentning mazmuni	Me'yor
1	To'lov/Daromad	Ma'lum bir davrda kredit bo'yicha to'lovlarning qarzdorning shu davrdagi daromadlariga nisbati	T/D ≤ 40%
2	Majburiyat/Daromad	Qarz oluvchi majburiyatlarining jami hisobga olinadigan daromadlariga nisbati	M/D ≤ 60%
3	Kredit/Garov	So'ralgan kredit miqdorining sotib olinadigan mulk qiymatiga nisbati	90% ≤ K/G ≤ 300%
4	Kredit/Tugatish qiymati	Taqdim etilayotgan kredit miqdorining sotiladigan ko'chmas mulkning minimal qiymatiga nisbati	

Ijroiy qarorlar moliyalashtirish taqdim etilishini ko'zda tutuvchi bir qator majburiy shartlar, xususan shartnoma parametrlari: miqdori, muddati, tijorat bank mukofoti va ta'minotning o'zgarishi hamda qator takliflarni ham o'z ichiga oladi.

Bunday holatda lizing kompaniyasiga shartnoma bo'yicha yangi qarorlarni qabul qilish uchun tuzatilgan shartnoma loyihasi taqdim etiladi. Muzokaralar yakunida shartnomani amalga oshirish imkoniyatlari bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Kredit shartnomasini tahlil qilishning birinchi bosqichi skoring modelini qo'llash bo'lib, u orqali lizing beruvchi va lizing oluvchining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Bank yoki tashqi dasturchilar tomonidan yaratilgan maxsus kompyuter dasturlari asosida shartnoma ishtirokchilari ball-vaznli ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinadi, baholanadi va natijada ularning kredit reytingi aniqlanadi. Qoida bo'yicha, skoring baholash natijasida olingan kredit reyting kontragentning defolt ehtimolini aks ettiradi. Shartnoma bo'yicha keyingi harakatlarni aniqlashda ushbu baholash natijasiga tayaniladi. Agar lizing beruvchi va (yoki) lizing oluvchining reytingi past deb baholangan bo'lsa yoki shartnoma parametrlari yuqori risk darajasidan dalolat bersa, unda tijorat banklarining risk-menejment yondashuvlariga asosan baholash modelida yanada chuqur tahlil o'tkazish va kredit ta'minotini oshirish ko'zda tutiladi.

Aksincha bo'lganida esa, moliyalashtirish bo'yicha qarorlar avtomatlashtirilgan tizim asosida mustaqil ekspert ishtirokisiz qabul qilinadi.

Nazorat jarayonida mustaqil ekspert – anderraytingning ishtiroki talab etilayotgan shartnomalarni tahlil qilish skoring modelida ko'zda tutilmagan risklarni aniqlash imkonini beradi, lekin shartnoma bo'yicha qaror qabul qilish muddatini uzaytiradi va banklarning xarajatlarini oshiradi. Shu sababli banklar tomonidan kredit mahsulotlarini va risklarni tahlil qilish tizimini yaratishda, katta mehnat sarflarini talab etmaydigan kreditlashning standart shartlarni tanlash imkonini beradigan shartnoma bo'yicha oqilona qaror qabul qilish tizimini yaratishga diqqat bilan yondashishlari lozim.

Kredit shartnomasini anderrayting choralarini qo'llamasdan turib tahlil qilishning klassik modeli lizing beruvchi va lizing oluvchilarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishni ko'zda tutadi. Bunda lizing subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati kontragentlar faoliyatining muhim moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga asoslanadi va ko'pgina holatlarda ball-vaznli ko'rsatkichlarni aniqlash uchun skoring modelidan foydalanishni ko'zda tutadi. Skoring modeli natijasida esa ularga kredit reytingi taqdim etiladi.

Har bir shartnoma bo'yicha kredit xulosasini tayyorlash murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon bo'lib, tahlil natijasida olingan yakuniy ma'lumotlar agar kredit tahlilchisi shartnomadan manfaatdor shaxs bo'lsa (bank tomonidan o'rnatilgan xodimlar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari KPI natijasida yoki shartnoma ishtirokchilari bilan shaxsiy munosabatlari tufayli), uning subyektiv munosabati ta'sirida shakllantirilgan bo'lishi mumkin. Kredit anderraytingi choralarini qo'llash kredit tahlilchisining xulosasi qo'shimcha tekshiruvdan o'tishi sababli risk turlarini kamaytirish imkonini beradi.

Aynan shu sababli anderrayting bo'limi bankning boshqa bo'limlari ta'siridan holi bo'lishi hamda bankning kredit portfeli va daromadi bo'yicha ko'zlangan miqdorlarga erishish bilan bog'liq biznes-rejasidan mustaqil bo'lishi lozim. Kredit anderraytingi tuzilmasining bunday mustaqilligiga erishish uchun uni bank tarkibidagi boshqa bo'limlarning bevosita va bilvosita ta'sirlaridan xoli bo'lgan alohida bo'lim sifatida shakllantirish talab etiladi. Amaliyotda anderrayterlarni hududiy belgisi bo'yicha alohida bino, shahar va hattoki, alohida mintaqada tashkil etish holatlari uchraydi.

Lizing beruvchi va lizing oluvchilarni reyting baholash va tahlil qilish jarayoniga skoring modellarini qo'llash tufayli olingan sifat ko'rsatkichlar iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari asosida baholanadi, avvalroq bunday tahlil kredit tahlilchining ekspert fikrlari asosida amalga oshiriladi.



Reyting dasturlarida foydalaniladigan ball-vaznli modellar quyidagi vazifalarni hal qilish uchun qo'llaniladi:

- kredit riski darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi baholanayotgan har bir omilning ta'sir darajasini aniqlash;
- iqtisodiy-matematik reyting modelni ishlab chiqish.

Lizing beruvchi va lizing oluvchining defot ehtimolligi, buning natijasi sifatida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilmaslik riski 0-100% oralig'ida baholanishi mumkin. Reyting modelida bunday baholar ma'lum bir oraliqlarga ajratilib, har biriga mos risk guruhi berkitiladi. Modelning shakllantirilishida ham bank faoliyatiga oid, ham moliya bozoriga oid statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Kredit shartnomasi sifat jihatdan qaysi risk guruhiga kiritilganligiga ko'ra, bank yo'qotishlar bo'yicha rezervlarni shakllantiradi. Misol uchun, Rossiyadagi banklarda kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga rezervlar miqdori quyidagicha belgilangan: nostandart kreditlar uchun 1 foizdan 20 foizgacha; shubhali kreditlar uchun 21 foizdan 50 foizgacha; muammoli kreditlar uchun 51 foizdan 100 foizgacha; umidsiz kreditlar uchun 100 foiz^[10]. Respublikamizda esa tijorat banklariga "standart", "substandart", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga zaxiralar shakllantirish Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan tartibga asosan belgilangan^[11]. Jumladan, kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga majburiy zaxiralarning me'yorlari quyidagicha: substandart kreditlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarzi (qoldiq) summasining 10 foizi miqdorida; qoniqarsiz kreditlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarzi (qoldiq) summasining 25 foizi miqdorida; shubhali kreditlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarzi (qoldiq) summasining 50 foizi miqdorida; umidsiz kreditlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarzi (qoldiq) summasining 100 foizi miqdorida maxsus zaxiralar shakllantirishi lozim.

Lizing shartnomasini kreditlash jarayonida bankning biznes-jarayonlarini qurishga asos bo'lib xizmat qiluvchi bir qator bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

1. Lizing beruvchi (ayrim payt lizing oluvchi)ning bankka murojaat qilishi, subyekt murojaati bilan bog'liq parametrlarni aniqlash. Ushbu bosqichda quyidagilar belgilanishi lozim:
 - kreditning miqdori va muddati;
 - kredit resurslarini taqdim etish bahosi;
 - qo'shimcha garov ta'minotining mavjudligi/yo'qligi (garov, kafil);
 - shartnomaning boshqa muhim shartlari.
2. Bankka mijozlarni jalb qilish bilan shug'ullanadigan front-ofis bo'limi xodimi (mijozlar menejeri) lizing beruvchi va lizing oluvchini, ular taqdim etgan hujjatlarni dastlabki baholashdan o'tkazishi, shuningdek shartnomaning bank manfaatlariga mos kelishini aniqlash uchun shartnoma tarkibining ekspress-tahlilini amalga oshirishi lozim.
3. Kredit bo'limi tahlilchisi kredit ajratishning maqsadliliigi bo'yicha xulosa tayyorlab, ushbu ma'lumotni anderrayterga yuboradi.

Shartnoma doirasida risklarni mustaqil ekspertizadan o'tkazishda anderrayter quyidagilarni tekshiradi:

- taqdim etilgan axborotlarning ishonchliligini;
- kredit shartnomasi parametrlari, ya'ni daromadlilik va ta'minlanganlikning bank ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiqiligini;
- reyting modeli parametrlarini to'ldirishning to'g'riligi va asosliliigi.

Anderrayterning ijobiy xulosasi bo'lganda bankning mutasaddi organlari tomonidan shartnomani amalga oshirish bo'yicha qaror chiqariladi. Bunda lizing beruvchi va lizing oluvchilarning reytingi asosiy ko'rsatkich sifatida hisobga olinadi.

Reytingni hisoblashda miqdoriy va sifat omillari ham e'tiborga olinadi. Miqdoriy omillar kontragentning buxgalteriya hisoboti asosida baholanadi. Sifat omillariga esa quyidagilarni kiritish mumkin:

- qarzi oluvchi faoliyat yuritayotgan tarmoq;
- qarzi oluvchining bozordagi pozitsiyasi, uning asosiy raqobatchilari;
- korxonalar mulkdor(lar)i va boshqaruv jarayoni to'g'risidagi salbiy fikrlar;
- shartnomalar portfelining diversifikatsiyasi, mol yetkazib beruvchilar va xaridorlarga qaramlik;
- ijobiy kredit tarixi;
- moliyaviy-investitsion siyosat;
- valyuta risklarining mavjudligi;
- qarzi oluvchi moliyaviy holatining shaffofligi va h.k.

Lizing kompaniyasi va lizing oluvchi faoliyatining sifat omillarini baholash natijasida anderrayter ushbu omillarning tuzilayotgan kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligiga qay darajada ta'sir ko'rsatish ehtimoli bo'yicha ekspert xulosasini taqdim etadi.

Kontragentlarning reytingini aniqlash bir necha bosqichlarda amalga oshirilib, u reytingni aniqlash metodikasining tarkibi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Iqtisodiy-matematik tahlil va modellashtirish usullari risk omillarini, ularning kreditning qaytarilmasligiga ta'sir doirasini aniqlash hamda qarzdor tomonidan majburiyatlarni insof bilan bajarilmaslik ehtimolining darajasini baholash imkonini beradi. Miqdoriy va sifat omillari ta'sirida reytingni aniqlashda yuzaga keladigan qo'shimcha risk omillarini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.



Yuqorida ta'kidlaganimizdek, miqdoriy va sifat omillari qarz oluvchining reytingini belgilab beradi. O'z navbatida, statistik tahlillar ko'rsatkichlarning modeldagi ulushi (vazni)ni aniqlash imkonini yaratadi. Zamonaviy kredit muassasalari qarz oluvchining reytingini aniqlashda bir turdagi modellardan foydalanishadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, modelni qurishda foydalanilgan statistik tahlil ma'lumotlari asosida hisoblanadigan formulalar bir-biridan farqlanishi mumkin. Modellarning turli shartlar asosida o'zgarishi (moslashishi) mumkinligi ham ularning farqlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Lizing oluvchining kredit reytingini aniqlashda foydalaniladigan iqtisodiy-matematik modelning umumlashtirilgan formulasini quyidagicha ifodalashimiz mumkin ^[12]:

$$R = UMo_u \times \sum(Mo_u \times Mo_q) + USo_u \times \sum(So_u \times So_q)$$

Bu yerda:

R – reyting;

UMo_u – modeldagi riskning miqdoriy omillari jami ulushi;

Mo_u – modeldagi miqdoriy omilning ulushi;

Mo_q – miqdoriy omilning qiymati (ball);

USo_u – modeldagi riskning sifat omillari jami ulushi;

So_u – modeldagi sifat omilining ulushi;

So_q – sifat omilining qiymati (ball).

Hozirgi kunda kontragentning kredit reytingi (R)ni aniqlashda turli hil oraliq shkalalardan foydalanib kelishmoqda. Kredit reytingi lizing oluvchining defolt holati xavfi (DHX)ni anglatganligi sababli reytingni aniqlashda 0-100% oraliq tanlansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kontragent reytingining qiymati qanchalik kichik bo'lsa, defolt holati xavfi ham shunchalik past bo'ladi.

Shundan so'ng bank tomonidan kontregantlar yaxshi, o'rtacha va yomon guruhlarga ajratiladi. Kredit reytingi kredit riskini aniqlashning yagona omili emas. Kredit riskini baholash uchun defolt holatidagi yo'qotishlar (DHY)ni aniqlash talab etiladi. DHY ham 0-100% oraliq qiymatlariga ega bo'ladi, bu omil qiymati qanchalik kichik bo'lsa, lizing shartnomasi shunchalik yuqori darajada ta'minlangan hisoblanadi.

$$KY = DHY \times DHX$$

Formuladagi ikki ko'paytuvchi shartnoma bo'yicha kutilayotgan yo'qotish (KY)larni aniqlashda qo'llaniladi, agar kutilayotgan yo'qotishlar darajasi tijorat banki tomonidan belgilangan me'yoriy ko'rsatkichdan yuqori bo'lmasa, ijobiy qaror qabul qilinadi.

Skoring modeli avvalgi kredit amaliyoti asosida ishlab chiqiladi. Ushbu modelning samarali bo'lishi axborotning yetarligiga bevosita bog'liq. Ma'lumotlar miqdori aniq modellarga bog'liq bo'lsada, umuman olganda, ular statistik ahamiyat va ehtimollik talablariga javob berishi lozim.

XULOSA

Tijorat banklari kredit siyosatiga anderryayting jarayonini joriy qilish qarz oluvchi faoliyatini baholashga bo'lgan yondashuvlarni unifikatsiyalashga va jarayonlarni standartlashtirishga imkon beradi.

Lizing shartnomalari uchun anderryayting jarayonida moslashuvchan modellarni qo'llash bankning kredit portfeli sifatini, shuningdek bank tizimining jami kredit portfelining sifatini oshirishga ta'sir etishi mumkin. Bu esa kredit muassasalariga kredit riski darajasini yanada aniqroq belgilash, kredit portfeli tarkibini nazorat qilish hamda daromadlilikni yuqori darajadagi aniqlikda hisoblash imkonini beradi.

Bank sektori joriy holatining tahliliy natijalari va uni rivojlantirish istiqbollari ko'ra, so'nggi yillarda banklarda past daromadli aktivlarning o'sishi va foiz stavkasi (marjasi)ning pasayishi hisobiga aktivlari va kapitalining o'sish sur'ati yo pasayadi, yoki juda ham past darajada qoladi. Bu holatda banklar foizli daromadlarga nisbatan yuqori daromad keltiruvchi boshqa daromad manbalari ulushini oshirishi lozim.

Lizing faoliyatini moliyalashtirish tijorat bankiga nafaqat lizing bozorida ma'lum bir ulushga ega bo'lish va muhim mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun ularni bankka jalb qilish, balki komission haq va agentlik mukofotini qo'lga kiritish orqali qo'yilgan vazifalarni sifatli va samarali yechish imkoniyatini beradi.

Tijorat banklari tomonidan lizing shartnomalarini moliyalashtirish modellarining taqqoslama tahlili o'rganilgan modellarning har biri o'ziga xos bir qator afzallik va kamchilikka ega ekanligini, tijorat banklari lizing shartnomalarining shartlari va parametrlaridan kelib chiqib, ushbu afzalliklarni birlashtira olishi va foydalana olishi, shuningdek lizing faoliyatini moliyalashtirish usul (sxema)larini tijorat banklarining o'zlari mustaqil tanlashlari lozim bo'ladi.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni.
2. Кургузкин А.Д., Просалова В.С. Андеррайтинг как способ оценки платежеспособности заемщика // Территория новых возможностей. Вестник ВГУЭС, 2012/1. С. 146-151.
3. Макарова В.А. Профессиональная деятельность на рынке ценных бумаг. Учебное пособие. – Отдел оперативной полиграфии НИУ ВШЭ – Санкт Петербург, 2011. – 90 с.
4. Буров П.Д., Морозко Н.И. Андеррайтинг как инструмент оценки платежеспособности субъектов малого и среднего бизнеса: сущность и инновационные пути развития // Интернет-журнал "НАУКОВЕДЕНИЕ" Том 8, №5 (2016).
5. Кудренко М.С. Андеррайтинг как инструмент оценки кредитоспособности: сущность и современные тенденции // Вопросы студенческой науки, Выпуск №16, декабрь 2017.
6. Новиков А.В. Андеррайтинг: международная практика // Matters of Russian and International Law. 2021, Vol. 11, Is. 2A
7. Xo'jayorov H.B. Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati // Iqtisod va moliya. 2022, 5(153). 29-38 b.
8. Alimov I.I., Bobojonov B.R., Gulyamov R.R. Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining operatsiyalarini takomillashtirish masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2014 yil. https://bank.uz/news/text88_kak_prosiodit_ocenka_platejesposobnosti_zaemshchika_-_anderrayting
9. Abdullaev Z.A. Banklarning kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga rezervlar va korporativ foyda solig'i // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020-yil.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 14-iyuldagi "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2696-son qarori.
12. Конягина, М.Н., Хашаев, А.А. Кредитный андеррайтинг как инструмент повышения качества кредитного портфеля // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. – 2017. - №1. – С. 49-53.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil **IQTISODIYOT** **TARAQQIYOT** va

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”
jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.